



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

**TURKISTON QISHLOQLARIDA SOVET IJTIMOYIY SIYOSATINING SHAKLLANISHI VA
UNING AGRAR HAYOTGA TA'SIRI: 1917–1921-YILLAR TAJRIBASI**

Abdulxayev Saydullo Ubaydulla o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, doktorant.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada 1917–1921-yillarda Turkiston qishloqlarida sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy va agrar siyosatning mazmuni, yo'nalishlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolsheviklar agrar siyosatining sinfiy yondashuvga asoslanganligi, yer va suv resurslarining davlat mulki deb e'lon qilinishi, yer-suv qo'mitalari, kambag'allar qo'mitalari va boshqa sovet tuzilmalari orqali qishloq hayotini qayta tashkil etish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, "harbiy kommunizm" siyosati, prodrazvyorstka, rekvizitsiya va majburiy musodara tadbirlarining dehqon xo'jaliklari, paxtachilik, chorvachilik hamda oziq-ovqat ta'minotiga ko'rsatgan salbiy ta'siri ochib beriladi. Maqolada sovet ijtimoiy siyosatining rasmiy shiorlari bilan amaliy natijalari o'rtasidagi ziddiyat tarixiy manbalar asosida ko'rsatilib, ushbu siyosat Turkiston qishloqlarida ijtimoiy keskinlik, iqtisodiy inqiroz va aholining kambag'allashuviga olib kelgani asoslanadi.

Kalit so'zlar: Turkiston, sovet hokimiyati, qishloq ijtimoiy siyosati, agrar siyosat, harbiy kommunizm, yer-suv qo'mitalari, kambag'allar qo'mitalari, prodrazvyorstka, rekvizitsiya, dehqon xo'jaligi.

**ФОРМИРОВАНИЕ СОВЕТСКОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В СЕЛЬСКОЙ
МЕСТНОСТИ ТУРКЕСТАНА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА АГРАРНУЮ ЖИЗНЬ: ОПЫТ 1917–1921
ГОДОВ**

Абдулхаев Сайдулло Убайдулла угли

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, докторант

Аннотация.

В статье рассматриваются содержание, основные направления и социально-экономические последствия советской социальной и аграрной политики, проводившейся в сельской местности Туркестана в 1917–1921 годах. Особое внимание уделяется классовому характеру большевистской аграрной программы, объявлению земли и водных ресурсов государственной собственностью, а также деятельности земельно-водных комитетов, комитетов бедноты и других советских структур, направленных на перестройку традиционной сельской жизни. Анализируются последствия политики «военного коммунизма», продразвёрстки, реквизиций и конфискации для дехканских хозяйств, хлопководства, животноводства и продовольственного обеспечения населения. В статье показано противоречие между официальными лозунгами социальной справедливости и реальными результатами советской политики. Обосновывается, что проводимые меры способствовали обострению социальной напряжённости, разрушению хозяйственных связей, снижению производственного потенциала сельского хозяйства и ухудшению материального положения населения Туркестана.

Ключевые слова: Туркестан, советская власть, социальная политика в деревне, аграрная политика, военный коммунизм, земельно-водные комитеты, комитеты бедноты, продразвёрстка, реквизиция, дехканское хозяйство.

**THE FORMATION OF SOVIET SOCIAL POLICY IN RURAL TURKESTAN AND ITS
IMPACT ON AGRARIAN LIFE: THE EXPERIENCE OF 1917–1921**

Abdulxayev Saydullo Ubaydulla o'g'li

Sharof Rashidov Samarkand State University, Doctoral Student

Abstract.

This article analyzes the content, main directions and socio-economic consequences of Soviet social and agrarian policy implemented in rural Turkestan between 1917 and 1921. The study focuses on the class-based nature of the Bolshevik agrarian program, the nationalization of land and water resources, and the activities of land-water committees, poor peasants' committees and other Soviet institutions aimed at restructuring traditional rural life. Particular attention is paid to the effects of War Communism, grain

requisitioning, forced confiscations and administrative pressure on peasant farms, cotton production, livestock breeding and food supply. The article reveals the contradiction between official slogans of social equality and the actual outcomes of Soviet policy in rural areas. It argues that these measures intensified social tensions, disrupted economic relations, weakened agricultural production and led to the impoverishment of a significant part of the rural population in Turkistan.

Keywords: Turkistan, Soviet power, rural social policy, agrarian policy, War Communism, land-water committees, poor peasants' committees, grain requisitioning, requisition, peasant economy.

KIRISH

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida kechgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar mintaqada tarixida tub burilish yasagan murakkab davrlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 1917-yilgi siyosiy o'zgarishlardan keyin sovet hokimiyatining o'rnatilishi, yangi boshqaruv tizimining shakllanishi va jamiyat hayotining barcha sohalarini "sotsialistik asosda" qayta qurishga qaratilgan siyosat qishloq hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Turkiston aholisi tarkibida qishloq aholisi, dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar va mayda yer egalari muhim o'rin tutganligi sababli sovet hokimiyatining agrar va ijtimoiy siyosati, avvalo, aynan qishloq muhitida sinovdan o'tdi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida qishloqqa nisbatan yuritilgan siyosat rasmiy jihatdan "ijtimoiy tenglikni ta'minlash", "mehnatkash dehqonlarni himoya qilish", "yer-suv resurslarini adolatli taqsimlash" kabi shiorlar bilan asoslandi. Biroq amaliy jarayonda ushbu siyosat keskin sinfiy yondashuv, ma'muriy-buyruqbozlik usullari, xususiy mulkchilikni cheklash, yer va suv resurslarini davlat tasarrufiga o'tkazish hamda qishloq aholisining an'anaviy xo'jalik munosabatlarini buzish bilan kechdi. Natijada sovet hokimiyati e'lon qilgan ijtimoiy adolat g'oyasi bilan real hayotdagi iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar o'rtasida jiddiy ziddiyat yuzaga keldi.

Turkiston qishloqlarida sovet ijtimoiy siyosatining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u mahalliy aholining tarixan shakllangan yerga egalik, suvdan foydalanish, qarindoshlik, qo'shnichilik, diniy va jamoaviy munosabatlarini yetarlicha hisobga olmadi. Yer-suv qo'mitalari, kambag'allar qo'mitalari, oziq-ovqat otryadlari va boshqa sovet tuzilmalari orqali qishloq hayotiga tashqaridan aralashuv kuchaydi. Bu tuzilmalar ko'pincha "boylar" va "kambag'allar" o'rtasidagi tafvutni sun'iy ravishda keskinlashtirishga xizmat qildi. Natijada qishloqda ijtimoiy ishonchsizlik, mulkiy nizolar, majburiy musodara, rekvizitsiya va norozilik holatlari kuchaydi.

Mazkur davrda "harbiy kommunizm" siyosati qishloq xo'jaligi hayotiga ayniqsa og'ir ta'sir ko'rsatdi. Prodravvyorstka, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlarining "ortiqcha" qismini davlat foydasiga majburiy tarzda yig'ib olish siyosati dehqonlarning ishlab chiqarishga bo'lgan manfaatdorligini susaytirdi. Don, chorva, yem-xashak, sabzavot, quruq meva va boshqa mahsulotlarning majburiy topshirilishi dehqon xo'jaliklarini iqtisodiy jihatdan zaiflashtirdi. Buning ustiga, qishloq xo'jaligi anjomlari, ishchi hayvonlar, urug'lik, kredit va boshqa moddiy vositalarning yetishmasligi agrar ishlab chiqarishning pasayishiga olib keldi.

Sovet agrar siyosatining paxtachilikka ta'siri ham alohida e'tiborga loyiqdir. Turkiston iqtisodiyotida paxta yetishtirish muhim tarmoq bo'lganiga qaramay, yangi hokimiyatning davlat monopoliyasi, narx belgilashdagi nomutanosiblik, kreditlash tizimining izdan chiqishi va dehqonlarga zarur moddiy yordamning yetarli darajada ko'rsatilmaligi paxtachilikning keskin qisqarishiga sabab bo'ldi. Dehqonlar o'z hayotini saqlab qolish maqsadida paxta ekinlarini kamaytirib, ko'proq oziq-ovqat ekinlariga o'tishga majbur bo'ldilar. Bu esa nafaqat qishloq iqtisodiyotiga, balki butun mintaqaning xo'jalik tuzilmasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligi shundaki, Turkiston qishloqlarida sovet hokimiyatining dastlabki ijtimoiy siyosatini o'rganish orqali mintaqada yuz bergan agrar inqiroz, qishloq aholisi kambag'allashuvi, ijtimoiy norozilik va siyosiy beqarorlik sabablarini chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Shuningdek, ushbu mavzu sovet davri tarixini faqat rasmiy siyosiy shiorlar asosida emas, balki real ijtimoiy-iqtisodiy natijalar, mahalliy aholi manfaatlari va tarixiy jarayonlarning murakkabligi nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi 1917–1921-yillarda Turkiston qishloqlarida sovet ijtimoiy siyosatining shakllanish jarayoni, uning agrar hayotga ta'siri hamda dehqon xo'jaliklari ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidagi yuzaga kelgan o'zgarishlarni tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, maqolada sovet hokimiyatining qishloqqa oid dastlabki qarorlari, yer-suv qo'mitalari va kambag'allar qo'mitalari faoliyati, "harbiy kommunizm" siyosatining oqibatlari, paxtachilik va chorvachilikdagi inqiroz omillari hamda qishloq aholisi turmush darajasining yomonlashuvi tarixiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Shunday qilib, Turkiston qishloqlarida sovet ijtimoiy siyosatining dastlabki bosqichini o'rganish nafaqat agrar tarix, balki ijtimoiy siyosat, davlat va jamiyat munosabatlari, markaziy hokimiyat va mahalliy an'anaviy tuzilmalar o'rtasidagi ziddiyatlarni anglash uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu masala tarixiy tajriba sifatida jamiyatni zo'ravonlik va ma'muriy bosim asosida o'zgartirishga urinishlar qanday chuqur ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib kelishini ko'rsatib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Turkiston qishloqlarida sovet ijtimoiy siyosatining shakllanishi va uning agrar hayotga ta'siri masalasi tarixshunoslikda turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mazkur mavzuni tahlil qilishda, avvalo, sovet davri tarixshunosligi, mustaqillik yillaridagi o'zbekistonlik tarixchilar qarashlari hamda rus tarixshunosligida shakllangan ilmiy xulosalarni qiyosiy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki 1917–1921-yillardagi agrar o'zgarishlar, yer-suv munosabatlarining qayta tashkil etilishi, “harbiy kommunizm”, prodrazvyorstka, rekvizitsiya va qishloq aholisining ijtimoiy tabaqalanishi birgina siyosiy hodisa emas, balki chuqur ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida namoyon bo'lgan.

O'zbekistonlik tarixchi R.X. Aminovanning “Аграрная политика советской власти в Узбекистане, 1917–1920 гг.” nomli tadqiqoti ushbu mavzuga bevosita aloqador muhim ishlardan biridir. Muallif sovet hokimiyatining dastlabki agrar tadbirlari, yer to'g'risidagi dekretning Turkiston sharoitida qo'llanishi, dehqonlar orasida sinfiy tashkilotlar tuzish, yer tuzish siyosati hamda paxtachilikni saqlab qolish va tiklashga qaratilgan choralarni keng yoritadi. Aminova tadqiqotining ahamiyatli jihati shundaki, unda 1917–1920-yillardagi agrar siyosatning tashkiliy-huquqiy asoslari, yer-suv qo'mitalari faoliyati va sovet hokimiyatining qishloq xo'jaligiga aralashuvi aniq tarixiy materiallar asosida ko'rsatiladi. Biroq mazkur asar sovet davri mafkuraviy talqinlari ta'sirida yozilgani sababli unda sovet agrar siyosati ko'proq ijobiy jarayon sifatida baholangan. Shunga qaramay, asardagi faktik ma'lumotlar hozirgi tadqiqot uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi, ayniqsa yer-suv munosabatlari, dehqon qatlamlari va paxtachilik siyosatini o'rganishda foydalanish mumkin (Aminova, 1963).

O'zbekistonlik tarixchi Q. Rajabov tadqiqotlarida Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, unga qarshi ijtimoiy-siyosiy qarshilik harakatlari, iqtisodiy siyosat va ocharchilik oqibatlari milliy tarix nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Rajabov asarlarida sovet hokimiyatining dastlabki siyosati faqat “ijtimoiy tenglik” yoki “mehnatkashlarni himoya qilish” shiori bilan emas, balki mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzi, diniy-qadriyaviy qarashlari, mulkchilik munosabatlari va xo'jalik yuritish tajribasiga zid holda olib borilgan jarayon sifatida baholanadi. Uning yondashuvi mazkur maqola uchun ayniqsa muhim, chunki Turkiston qishloqlarida ijtimoiy siyosatning zo'ravonlik, musodara, ma'muriy bosim va qishloq aholisi noroziligi bilan bog'liq jihatlarini ochib berishga yordam beradi. Rajabovning ishlari sovet agrar siyosati oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz va ocharchilikni mahalliy aholi manfaatlarini nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi (Rajabov, 2015; Rajabov, 2022).

Rus tarixshunosligi vakillaridan A.A. Golovanovning “Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917–1937 гг.” nomli tadqiqoti dehqonlarning sovet davridagi ijtimoiy holati evolyutsiyasini o'rganishda muhim ilmiy manbalardan hisoblanadi. Golovanov sovet agrar siyosatining dastlabki yillaridanoq dehqonlar ijtimoiy mavqeiga jiddiy ta'sir ko'rsatganini, sinfiy yondashuv qishloq jamiyatining tabiiy rivojlanishini izdan chiqarganini ko'rsatadi. Muallifning asosiy xulosalaridan biri shundaki, agrar siyosatning ma'muriy-buyruqbozlik usullari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishiga emas, balki dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy zaiflashuviga olib kelgan. Golovanov qarashlari maqolada “harbiy kommunizm”, prodrazvyorstka, rekvizitsiya, qishloq xo'jaligi inqirozi va dehqonlarning mehnatga bo'lgan manfaatdorligi pasayishi masalalarini asoslashda muhim nazariy tayanch bo'la oladi (Golovanov, 1992).

P.G. Galuzoning “Туркестан — колония” nomli asari bevosita sovet davri qishloq siyosatini emas, balki Turkistonning chor Rossiyasi davridagi mustamlakachilik agrar siyosatini tahlil qiladi. Shunga qaramay, ushbu manba mavzu uchun muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki sovet hokimiyatining dastlabki agrar siyosatini to'g'ri tushunish uchun Turkistondagi yer-suv munosabatlari, ko'chirish siyosati, mahalliy dehqonlarning yerga egalik shakllari va mustamlakachilik davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni bilish zarur. Galuzo Turkistonni Rossiya imperiyasining agrar-mustamlaka hududi sifatida talqin qilib, yer masalasi va dehqonchilik munosabatlarida mustamlakachilik siyosatining chuqur iz qoldirganini ko'rsatadi. Mazkur qarash sovet davrida amalga oshirilgan yer-suv siyosatining oldingi tarixiy zaminini yoritishda qo'l keladi. Ya'ni sovet hokimiyati o'zini eski mustamlakachilik tartiblariga qarshi kuch sifatida ko'rsatgan bo'lsa-da, amalda qishloq hayotiga markazlashgan boshqaruv va zo'ravonlik usullari orqali aralashganini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi (Galuzo, 1929/1935).

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, Turkiston qishloqlarida sovet ijtimoiy siyosatini bir tomonlama baholash mumkin emas. Sovet davri tarixshunosligida bu jarayon "ijtimoiy adolat" va "mehnatkash dehqonlarni ozod qilish" sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda uning zo'ravonlik, sinfiy qarama-qarshilik, iqtisodiy yemirilish va milliy manfaatlarni cheklash bilan bog'liq jihatlari kengroq ochib berildi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada Aminova bergan faktik materiallar, Rajabovning milliy tarixiy yondashuvi, Golovanovning dehqonlar ijtimoiy holati haqidagi tahlillari va Galuzoning mustamlakachilik agrar munosabatlari haqidagi qarashlari o'zaro qiyosiy asosda foydalaniladi. Bu esa 1917–1921-yillarda Turkiston qishloqlarida sovet ijtimoiy siyosatining shakllanishi va oqibatlarini yanada chuqurroq ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda asosiy metod sifatida **tarixiy-qiyosiy tahlil metodidan** foydalanildi. Ushbu metod 1917–1921-yillarda Turkiston qishloqlarida amalga oshirilgan sovet ijtimoiy siyosatining mazmuni, shakllanish bosqichlari va agrar hayotga ko'rsatgan ta'sirini tarixiy jarayonlar ketma-ketligi asosida o'rganish imkonini beradi. Tarixiy-qiyosiy yondashuv orqali sovet hokimiyatining rasmiy shiorlari — ijtimoiy tenglik, yer-suv resurslarini adolatli taqsimlash, kambag'al dehqonlarni himoya qilish kabi g'oyalar bilan amaliy siyosat natijalari o'zaro solishtirildi.

Mazkur metod yordamida Turkiston qishloqlarida yer-suv qo'mitalari, kambag'allar qo'mitalari, oziq-ovqat otryadlari va boshqa sovet tuzilmalari faoliyati qishloq aholisining an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, "harbiy kommunizm" davrida amalga oshirilgan rekvizitsiya, prodravvyorstka, majburiy musodara va davlat monopoliyasi kabi tadbirlarning dehqon xo'jaliklari, paxtachilik, chorvachilik hamda oziq-ovqat ta'minotiga ko'rsatgan ta'siri tarixiy dalillar asosida baholandi.

Tarixiy-qiyosiy tahlil metodi mavzuni bir tomonlama siyosiy baholashdan saqlanib, sovet ijtimoiy siyosatining e'lon qilingan maqsadlari va real oqibatlari o'rtasidagi ziddiyatni ochib berishga xizmat qiladi. Shu asosda Turkiston qishloqlarida sovet agrar-ijtimoiy siyosati nafaqat ma'muriy islohotlar majmui, balki mahalliy aholining turmush tarzi, xo'jalik yuritish tizimi va ijtimoiy munosabatlarga chuqur ta'sir ko'rsatgan murakkab tarixiy jarayon sifatida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot materiallari shuni ko'rsatadiki, 1917–1921-yillarda Turkiston qishloqlarida amalga oshirilgan sovet ijtimoiy siyosati rasmiy jihatdan "ijtimoiy tenglik", "mehnatkash dehqonlarni himoya qilish", "yer-suv resurslarini adolatli taqsimlash" kabi shiorlar bilan asoslangan bo'lsa-da, amaliyotda u keskin sinfiy yondashuv, ma'muriy bosim, majburiy musodara va qishloq xo'jaligi hayotini markazlashgan tartibda boshqarishga qaratilgan siyosat sifatida namoyon bo'ldi. Ayniqsa, "harbiy kommunizm" sharoitida ijtimoiy siyosat agrar ishlab chiqarishning tabiiy rivojlanishiga emas, balki dehqon xo'jaliklarini davlat ehtiyojlariga bo'ysundirishga xizmat qildi.

Materiallar tahlili sovet hokimiyatining qishloqqa nisbatan siyosati uch asosiy yo'nalishda olib borilganini ko'rsatadi. Birinchi yo'nalish yer-suv munosabatlarini tubdan o'zgartirish, xususiy egalikni cheklash va yirik mulklarni milliyalashtirishdan iborat edi. Ikkinchi yo'nalish qishloq aholisini sinfiy guruhlariga ajratish, "kambag'al dehqonlar"ni siyosiy tayanch sifatida ko'rsatish va "boy", "quloq", "mehnatsiz xo'jalik" deb baholangan qatlamlarga qarshi kurashni kuchaytirish bilan bog'liq bo'ldi. Uchinchi yo'nalish esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlat foydasiga majburiy yig'ib olish, paxta, g'alla, chorva va boshqa mahsulotlar ustidan nazorat o'rnatish siyosatida namoyon bo'ldi.

Dastlabki agrar tadbirlardan biri yerlarni sotish va sotib olish bitimlarining bekor qilinishi bo'ldi. Yer va suv resurslari davlat mulki sifatida e'lon qilinib, dehqonlarning yerga bo'lgan an'anaviy egalik munosabatlari izdan chiqarildi. 1920-yil 17-noyabrda "Yerdan foydalanish va yer tuzish to'g'risida"gi qaror bilan Turkiston hududidagi barcha yer va suvlar yagona davlat boyligi sifatida belgilandi. Bu holat qishloq xo'jaligida ishlab chiqaruvchi asosiy kuch bo'lgan dehqonning yerga nisbatan mas'uliyati va manfaatdorligini susaytirdi. Dehqon yerning egasi emas, balki davlat tomonidan belgilangan shartlar asosida undan foydalanuvchi subyektga aylantirildi.

Yer-suv qo'mitalari faoliyati sovet ijtimoiy siyosatining qishloqdagi eng muhim vositalaridan biri bo'ldi. Ushbu qo'mitalarga "mehnat qilmaydigan xo'jaliklar"ni aniqlash, ularning yer, chorva, asbob-uskunalar va boshqa mulklarini ro'yxatga olish hamda "ortiqcha" deb topilgan mol-mulkni kambag'al qatlamlar o'rtasida taqsimlash vazifasi yuklatildi. Biroq amaliyotda yer-suv qo'mitalari ko'pincha yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmagan, mahalliy sharoitni chuqur bilmagan yoki berilgan vakolatdan shaxsiy

manfaat yo'lida foydalangan kishilar tomonidan boshqarildi. Natijada dehqonlar orasida qo'mitalarga nisbatan ishonchsizlik kuchaydi, yer va mulk taqsimoti bo'yicha ko'plab shikoyatlar yuzaga keldi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, yer-suv qo'mitalari dastlab ijtimoiy adolatni tiklash vositasi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa-da, ularning faoliyati ko'plab hollarda qishloqdagi mulkiy munosabatlarni izdan chiqardi. Ba'zi hududlarda yer, chorva, urug'lik, qishloq xo'jaligi asboblari va hatto oziq-ovqat mahsulotlari ham musodara qilindi. Ayrim holatlarda esa "boy xo'jalik" sifatida baholangan xo'jaliklar aslida o'rta yoki mayda xo'jalik bo'lgan. Masalan, Farg'ona viloyatida tugatilgan 481 ta xo'jalikda jami 25 ta omoch mavjud bo'lgani, murakkab qishloq xo'jaligi texnikasi esa umuman bo'lmagani bu siyosatning ko'pincha real iqtisodiy mezonlarga emas, balki sinfiy-siyosiy qarashlarga asoslanganini ko'rsatadi.

Kambag'allar qo'mitalari va keyinchalik kambag'allar ittifoqlari ham qishloqda sinfiy qarama-qarshilikni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qildi. Ularning vazifasi kambag'al qatlamlarni sovet hokimiyati atrofiga birlashtirish va ularni "boy dehqonlar"ga qarshi qo'yishdan iborat edi. Biroq Turkiston qishloqlarida diniy, qarindoshlik, qo'shnichilik va jamoaviy aloqalar kuchli bo'lganligi sababli bunday keskin sinfiy ajratish mahalliy ijtimoiy muhitga mos kelmadi. Natijada qishloqda sun'iy ijtimoiy ziddiyatlar kuchaydi, hokimiyatga nisbatan norozilik ortdi va ayrim hududlarda ochiq qarshilik harakatlarining kuchayishiga zamin yaratildi.

Sovet hokimiyati tomonidan tashkil etilgan artellar, kommunalar va sovxozlar ham kutilgan natijani bermadi. Ular qishloq xo'jaligini "sotsialistik asosda" qayta qurishning namunasi sifatida ko'rsatildi. 1918-yil 1-oktabrga kelib TASSR hududida 400 dan ortiq artel va boshqa jamoa xo'jaliklari mavjud bo'lib, ular 35 ming desyatina yer maydonini egallagan. 1919–1920-yillarda esa Turkistonning o'zbek hududlarida 550 dan ortiq jamoaviy xo'jalik tashkil etildi. Ular taxminan 40 ming qishloq mehnatkashini birlashtirgan va qariyb 35 ming desyatina yer maydonini egallagan. Biroq bu xo'jaliklarning katta qismi qisqa vaqt ichida parokanda bo'lib ketdi. Buning sababi moddiy-texnik baza, ishchi hayvonlar, urug'lik, moliyaviy resurslar va yirik xo'jalik yuritish tajribasining yetishmasligi edi.

1-jadval. Turkiston qishloq xo'jaligidagi ayrim ko'rsatkichlarning o'zgarishi

Ko'rsatkich	Dastlabki holat	Keyingi holat	O'zgarish mazmuni
Paxta maydoni	1916-yilda 533,7 ming desyatina	1918-yilda 80 ming desyatina	Paxtachilik keskin qisqargan
Sug'oriladigan yerlar	1915-yilda 2,4 mln desyatina	1920-yilda 1,4 mln desyatina	Irrigatsiya tizimi izdan chiqqan
Chorva mollari soni	1917-yilda 11,5 mln bosh	1920-yil oxirida 5,1 mln bosh	Chorvachilik og'ir inqirozga uchragan
Dehqon xo'jaliklari soni	1917-yilda 866,8 mingta	1920-yilda 736,6 mingta	Xo'jaliklar soni kamaygan
Ishga layoqatli erkaklar	1917-yilda 1 056,2 ming kishi	1920-yilda 677,9 ming kishi	Mehnat resurslari qisqargan
Tirkama kuchi: ot va ho'kizlar	1917-yilda 1 106,5 ming bosh	1920-yilda 522,5 ming bosh	Dehqonchilikning ishlab chiqarish bazasi zaiflashgan

Jadvaldagi ma'lumotlar sovet agrar-ijtimoiy siyosati, fuqarolar urushi va "harbiy kommunizm" sharoitida Turkiston qishloq xo'jaligi chuqur inqirozga yuz tutganini ko'rsatadi. Paxta maydonining 533,7 ming desyatina 80 ming desyatina tushib qolishi ayniqsa muhim natijadir. Chunki paxtachilik Turkiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lgan. Davlat monopoliyasi, past xarid narxlar, urug'lik va kredit tizimining buzilishi, dehqonlarga zarur tovar va oziq-ovqat mahsulotlarining yetkazib berilmasligi paxtakorlarning ishlab chiqarishdan manfaatdorligini pasaytirdi. Natijada dehqonlar ocharchilik xavfidan qutulish uchun paxta ekishni kamaytirib, oziq-ovqat ekinlariga o'tishga majbur bo'ldilar.

Chorvachilikdagi holat ham og'ir bo'ldi. 1917-yilda Turkistonda 11,5 million bosh chorva mavjud bo'lgan bo'lsa, 1920-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 5,1 million boshga tushib ketdi. Bunday keskin pasayish bir necha omillar bilan bog'liq edi: armiyaning ehtiyoji uchun ot va boshqa chorvalarning rekvizitsiya qilinishi, yem-xashak tanqisligi, urush harakatlari, oziq-ovqat inqirozi va dehqon xo'jaliklarining umumiy kambag'allashuvi. Chorvaning kamayishi esa faqat go'sht va sut mahsulotlari tanqisligini emas, balki yer haydash, tashish va boshqa qishloq xo'jaligi ishlarining izdan chiqishini ham kuchaytirdi.

Qishloq xo'jaligi anjomlari bilan ta'minlashdagi inqiroz ham ishlab chiqarishga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. 1915-yilda Turkistonga 3500 ta plug, 2180 ta borona, 532 ta seyalka va 806 ta kultivator olib

kirilgan bo'lsa, 1920-yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 150 ta plug, 49 ta borona, 22 ta seyalka va 28 ta kultivatorgacha kamaygan. Bu raqamlar qishloq xo'jaligi texnik bazasining deyarli izdan chiqqanini ko'rsatadi. Dehqonlar nafaqat zamonaviy texnikadan, balki eng oddiy mehnat qurollaridan ham mahrum bo'lib bordilar. Bundan tashqari, mavjud anjomlar ham ko'pincha maxsus guvohnomalar orqali, sinfiy mezonlar asosida taqsimlangan.

2-jadval. Qishloq xo'jaligi anjomlarining olib kirilishidagi pasayish

Yil	Pluglar	Boronalar	Seyalkalar	Saralash va sovurish mashinalari	Kultivatorlar
1915	3500	2180	532	678	806
1917	1450	106	372	305	461
1920	150	49	22	—	28

Prodravzyorstka siyosati qishloq aholisining moddiy ahvolini yanada og'irlashtirdi. 1918-yil yozidan Turkistonda oziq-ovqat diktaturasi e'lon qilinib, qishloqlarga maxsus oziq-ovqat otryadlari yuborildi. 1920-yilga kelib don tayyorlash ishlarida 42 ta ishchi prodotryad qatnashgan, ularning tarkibi 3–4 ming kishiga yaqin bo'lgan. Donni belgilangan narxlarida majburiy topshirish joriy etildi, biroq dehqonlarga ko'pincha real haq to'lanmadi. 1918-yilning ikkinchi yarmi va 1919-yil boshlarida Turkistonda, Yettisuv viloyatidan tashqari, jami 1 million 938 ming pud don tayyorlangani qayd etiladi. Bu miqdor aholining eng kam ehtiyojlarini ham ta'minlash uchun yetarli emas edi.

1920-yil ikkinchi yarmidan boshlab prodrazvyorstka yanada kengaydi. U nafaqat don, balki chorvachilik mahsulotlari, sabzavotlar va quruq mevalarga ham tatbiq etildi. Faqat 1920-yil avgustidan 1921-yil iyuligacha prodrazvyorstka orqali 9 708 703 pud don, 6 358 144 pud yem-xashak, 1 606 201 pud go'sht, 465 889 pud sabzavot va 584 977 pud quruq meva yig'ib olingan. Bu raqamlar davlatning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini majburiy safarbar qilish siyosati qanchalik keng ko'lamli bo'lganini ko'rsatadi. Natijada dehqon xo'jaliklarining o'z iste'moli, urug'lik fondi va kelgusi ishlab chiqarish imkoniyatlari qisqarib ketdi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sovet ijtimoiy siyosati qishloq aholisining barcha qatlamlariga bir xil darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmadi. Rasmiy targ'ibotda kambag'al dehqonlar manfaatlarini himoya qilinyotgani ta'kidlangan bo'lsa-da, amalda kambag'al qatlamlar ham oziq-ovqat tanqisligi, ishlab chiqarish vositalarining yetishmasligi, majburiy safarbarlik, qo'mitalar faoliyatidagi suiiste'mollar va umumiy iqtisodiy inqirozdan aziyat chekdi. "Boy" qatlamlarga qarshi qaratilgan zarbalar esa bilvosita butun qishloq xo'jaligi tizimiga ta'sir qildi, chunki ular orqali yuritilgan kredit, ijara, mehnat va mahsulot ayirboshlash munosabatlari ham izdan chiqdi.

Umumiy natija sifatida aytish mumkinki, 1917–1921-yillarda Turkiston qishloqlarida amalga oshirilgan sovet ijtimoiy siyosati dehqon xo'jaliklarini barqaror rivojlantirishga emas, balki ularni sinfiy-siyosiy mezonlar asosida qayta tashkil etishga qaratildi. Yer-suv qo'mitalari, kambag'allar qo'mitalari, rekvizitsiya, prodrazvyorstka, davlat monopoliyasi va jamoaviy xo'jaliklar tashkil etish siyosati qishloq xo'jaligining moddiy asoslarini zaiflashtirdi. Natijada Turkiston qishloqlarida ishlab chiqarish pasaydi, paxtachilik va chorvachilik inqirozga yuz tutdi, dehqonlarning mehnatga qiziqishi susaydi, ijtimoiy keskinlik va norozilik kuchaydi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi qishloq ijtimoiy siyosati e'lon qilingan maqsadlar bilan real oqibatlar o'rtasidagi chuqur ziddiyatga ega bo'lganini tasdiqlaydi. Rasmiy jihatdan "ijtimoiy adolat" va "mehnatkashlarni himoya qilish" g'oyalari ilgari surilgan bo'lsa-da, amaliyotda ma'muriy-buyruqbozlik, zo'ravonlik, musodara, iqtisodiy cheklov va mahalliy an'anaviy munosabatlarni inkor etish ustuvor bo'ldi. Bu esa Turkiston qishloqlarida agrar inqiroz, kambag'allashuv, ocharchilik va siyosiy-ijtimoiy beqarorlikni chuqurlashtirgan asosiy omillardan biri bo'ldi.

XULOSA

1917–1921-yillarda Turkiston qishloqlarida amalga oshirilgan sovet ijtimoiy siyosati mazmunan murakkab, ziddiyatli va keskin oqibatlarga olib kelgan tarixiy jarayon bo'ldi. Sovet hokimiyati dastlab "ijtimoiy tenglik", "yer-suv resurslarini adolatli taqsimlash", "kambag'al dehqonlarni himoya qilish" kabi shiorlarni ilgari surgan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu siyosat qishloq hayotini ma'muriy-buyruqbozlik asosida qayta tashkil etish, sinfiy qarama-qarshilikni kuchaytirish va dehqon xo'jaliklarini davlat manfaatlariga bo'ysundirish bilan kechdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiston qishloqlarida yer va suv resurslarining davlat mulki deb e'lon qilinishi, xususiy mulkchilik munosabatlarining cheklanishi hamda yer-suv qo'mitalari va kambag'allar qo'mitalari faoliyatining kuchayishi an'anaviy agrar munosabatlarni izdan chiqardi. Mahalliy

aholining tarixan shakllangan xo‘jalik yuritish tajribasi, jamoaviy aloqalari, diniy-qadriyaviy qarashlari va mulkchilikka bo‘lgan munosabati yetarli darajada hisobga olinmadi. Natijada qishloq ijtimoiy muhitida ishonchsizlik, norozilik va keskinlik kuchaydi.

“Harbiy kommunizm” siyosati, ayniqsa prodravvyorstka, majburiy rekvizitsiya va musodara tadbirlari dehqon xo‘jaliklariga og‘ir zarba berdi. Davlat tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari, chorva, yem-xashak, urug‘lik va qishloq xo‘jaligi anjomlarining majburiy tarzda tortib olinishi dehqonlarning ishlab chiqarishga bo‘lgan manfaatdorligini susaytirdi. Bu esa paxtachilik, chorvachilik va umumiy agrar ishlab chiqarishning keskin pasayishiga sabab bo‘ldi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, sovet hokimiyatining qishloqdagi ijtimoiy siyosati faqat “boy” yoki “quloq” deb baholangan qatlamlargagina emas, balki butun qishloq xo‘jaligi tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Boy xo‘jaliklar bilan birga o‘rta va mayda dehqon xo‘jaliklari ham zarar ko‘rdi. Qishloqda mavjud bo‘lgan kredit, ijara, mehnat taqsimoti va mahsulot ayirboshlash tizimlarining izdan chiqishi kambag‘al qatlamlarning ham moddiy ahvolini yengillashtirmadi, aksincha ularni yanada og‘ir iqtisodiy sharoitga olib keldi.

Umuman olganda, 1917–1921-yillardagi sovet ijtimoiy siyosati Turkiston qishloqlarida kutilgan ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlay olmadi. Aksincha, sinfiy kurashga asoslangan siyosat, zo‘ravonlikka tayangan boshqaruv, mahalliy sharoitni yetarlicha hisobga olmaslik va iqtisodiy resurslarning majburiy safarbar qilinishi qishloq xo‘jaligini chuqur inqirozga olib keldi. Natijada dehqon xo‘jaliklari zaiflashdi, oziq-ovqat tanqisligi kuchaydi, aholining turmush darajasi pasaydi va ijtimoiy norozilik kengaydi.

Shunday qilib, Turkiston qishloqlarida sovet ijtimoiy siyosatining dastlabki bosqichi tarixiy tajriba sifatida shuni ko‘rsatadiki, jamiyat hayotini sun’iy mafkuraviy andozalar asosida, mahalliy iqtisodiy va madaniy xususiyatlarni hisobga olmagan holda o‘zgartirish og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Mazkur davr tajribasi agrar siyosatni ishlab chiqishda dehqon manfaatlari, ishlab chiqarish rag‘batlari, mulkiy munosabatlar, mahalliy an’analar va ijtimoiy muvozanatni hisobga olish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аминова Р.Х. Аграрная политика советской власти в Узбекистане, 1917–1920 гг. – Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1963. – 342 с.
2. Rajabov Q., Raxmatov M. Turkistonda sovet hokimiyatining iqtisodiy siyosati va ocharchilik dahshatlari (1917–1924-y.). – Toshkent: Fan, 2022. – 176 b.
3. Rajabov Q., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar): 10-sinf va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 144 b.
4. Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917–1937 гг. – Ташкент: Фан, 1992. – 160 с.
5. Галузо П.Г. Туркестан — колония: очерк истории колониальной политики русского царизма в Средней Азии. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1935.
6. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar): akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – 256 b.
7. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). Birinchi kitob: 1917–1939-yillar / Mas’ul muharrirlar: R. Abdullayev, M. Rahimov, Q. Rajabov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
8. Гимпельсон Е.Г. «Военный коммунизм»: политика, практика, идеология. – Москва: Мысль, 1973.
9. Декреты Советской власти. Том 1: 25 октября 1917 г. – 16 марта 1918 г. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1957.